

**PIRIMQUL QODIROVNING “MEROS” VA ODIL YOQUBOVNING
“ADOLAT MANZILI” ASARLARIDA G‘OYA MUSHTARAKLIGI**

Botirova Anaxon,

Urganch davlat universiteti

Filologiya va san'at fakulteti

3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Pirimqul Qodirov va Odil Yoqubov asarlarida ilgari surilgan g‘oyaning mushtarak jihatlari tahlilga tortiladi. Tadqiqot ishining predmeti sifatida esa “Adolat manzili” romani va “Meros” qissasi tanlab olingan.

Kalit so‘zlar: g‘oya, qahramon, obraz, muallif, yozuvchi, roman, asar, sujet, “paxta ishi”, “o‘zbek ishi”, qatag‘on, siyosat, xarakter, qissa, adib.

KIRISH. Har bir xalqning uzoq o‘tmishda kechirgan qiyinchiliklari, azob-uqubatlari shu millatning adabiyotiga ham ta’sir o‘tkazmasdan qolmaydi. Jumladan, “paxta ishi”, keyinchalik esa “o‘zbek ishi” deya nom olgan qatag‘on siyosatining azobli kunlari, minglab begunoh o‘zbeklarning qamoqqa olinishi xalqimiz uchun juda og‘ir kechdi. Shoir va yozuvchilar ijodining bosh mavzusiga aylandi. Bu haqida O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning quyidagi satrlari mavjud:

Sen paxta terarding yetti bukilib,
Paykalingda eding, ey onajonim.
“O‘zbekmisiz?” – deya g‘alati kulib,
Mendan so‘rab qoldi bir tannoz xonim.¹

Biz tahlilga tortmoqchi bo‘lgan ijod namunalari ham o‘sha mudhish qatag‘on siyosati haqida hikoya qiladi.

Pirimqul Qodirov va Odil Yoqubov o‘z davrida tarixiy romanlari, maishiy hayot ikir-chikirlari bilan bog‘liq qissa va hikoyalari bilan kitobxonlar qalbiga kirib

¹ Yusuf.M Saylanma: she’rlar, dostonlar, xotiralar. – Toshkent: “Sharq”, 2007.

borishgan. Zero, bu adiblarning har ikkalasi ham Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Oybek kabi yozuvchilarimizning an'analarini munosib davom ettirishgan. "O'zbek prozasi balandda uchib borayotgan bir qush desak, Odil Yoqubov bilan Pirimqul Qodirov uning ikki qanotiga o'xshaydi", – deydi adabiyotshunos olim Pirmat Shermuhamedov.²

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Odil Yoqubov o'z publitsistik maqolalarida ona tabiatga zulm ko'rsatish kechirilmas ayb sanalishini alohida ta'kidlaydi. Paxta yakkahokimligigiga, paxtachilikda zaharli dorilarnio haddan ziyod ishlatishga qarshi, paxtaning xarid narxini ko'tarish to'g'risida qimmatli fikrlarni o'rta tashlaydi.³ Keyinchalik bu da'vatlar adibning badiiy asarlariga ham ko'chgan desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Chunonchi, 1998-yilda dunyo yuzini ko'rgan "Adolat manzili" romanida o'tgan asrning 80-yillarida xalqimiz boshiga tushgan musibatlar qalamga olingan. Asar bosh qahramonlari – Marjonoy va Suyun burgut bir-birlariga ko'ngil qo'yib turmush qurishadi. Ammo ularning bu quvonchli damlari uzoqqa cho'zilmaydi. Suyun burgut sovxoz rahbarligiga tayinlanadi va shu kundan boshlab yosh oila boshiga falokat toshlari yog'ila boshlaydi.

Burgut obrazi, umuman, asardagi kurashchan ruh faqat adabiy hodisa sifatida emas, muhim ma'naviy-ijtimoiy omil sifatida ham qimmatlidir. Gap shundaki, o'zbeklar yoppasiga itoatkor, mute, tobelikka, qullikka moyil xalq degan uydirma anchadan beri aylanib yurardi. "O'zbek ishi" mashmashasi avj olgan kezlari davlat arboblardan tortib talay vijdonli, fidokor adiblarimiz, oddiy fuqarolarimizgacha bu xil xo'rlikka qarshi oyoqqa turganliklarini o'z ko'zimiz bilan ko'rdik-ku axir! Odil Yoqubov romani xalqimizning shunday shijoatiga o'qilgan qasida kabi yangraydi.⁴

Pirimqul Qodirov qalamiga mansub "Meros" qissasi ham mavzu va g'oya

² Shermuhamedov P. Davr qahramon taqdirida. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976.

³ Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2005.

⁴ Karimov N, Mamajonov S, Nazarov B va boshqalar. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: "O'qituvchi", 1999.

jihatdan “Adolat manzili” romaniga yaqin turadi, ammo sujet ko‘lami va janr jihatidan bir-biridan farq qiladi, Biroq ikkala asar ham insoniy fazilatlar tarannumiga bag‘ishlangan.

1974-yilda yozilgan “Meros” qissasi faqat Pirimqul Qodirov ijodidagina emas, balki o‘zbek adabiyotida azamat paxtakorlar hayotiga bag‘ishlangan asarlar ichida o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. Avvalo, bu asarda umuminsoniy muhim bir masala aks etadi. Bu shundan iboratki, unda xalqimizda azaldan bor bo‘lgan bir muhim an‘ana – yaxshilikning, elga qilinadigan xizmatning uzluksiz ravishda avloddan avloda o‘tib borishi va bu ishda uzilish insonga yotligi aks ettiriladi.⁵

“Paxta uchun kurash. Bu so‘zlar mening qulog‘imga ona allasi bilan birga kirgan bo‘lsa ajab emas. Mening odam zotidan birinchi taniganim – onam bo‘lsa, dunyoda bor jamiki narsaning orasidan birinchi taniganim paxta bo‘lgan... Tetapoya bo‘lib yo‘lga kirganimdayoq dala ishidan bo‘shamaydigan onamning etagidan tutib, egatlarda yiqilib-surilib yurar edim. Qush uyasida ko‘rganini qilar ekan: hali bo‘yim g‘o‘zaning bo‘yiga yetib-yetmasdanoq chanoqda ochilib turgan paxtalardan yulqilab olib onamning etagiga solardim”⁶, - deydi qissa qahramonlaridan biri Tursun.

Asar bosh qahramoni Yolqin Otajonov (uning prototipi Mamajon Dadajonov)ning yoshligi respublikamizda paxtachilikni rivojlantirishga kirishilgan dastlabki yillarga to‘g‘ri keladi. Hali yosh bo‘lishiga qaramasdan paxtakorlarimiz boshiga tushgan hamma qiyinchiliklarni u ham bir qator boshidan o‘tkazadi. Shu qiyinchiliklar uni paxtakorlar mehnatini yengillashtirish ustida bosh qotirishga, bor aql va idrokini shunga sarf qilishga undaydi va o‘z umrini shunga bag‘ishlaydi.⁷ Yolqinning ukasi Tursunga esa fidoyilik meros bo‘lib qoladi. Yolqin Otajonov esa asar so‘ngida qahramonlarcha halok bo‘ladi.

⁵ Normatov U. Yetuklik//Hayot bilan hamnafaslik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1982.

⁶ Qodirov P. Meros. – Toshkent: “Ilm-ziyo-zakovat”, 2021.

⁷ Qo‘shjonov M. Saylanma// Bahslarda ulg‘aygan ijod. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1982.

XULOSA. Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, mudhish qatag'on davri voqealarini tasvirlovchi bu asarlar qahramonlar taqdiri orqali kitobxonga bugungi dorulomon kunlarning qadriga yetish lozimligini uqtiradi. Bundan tashqari, asardagi monolog va dialoglar, peyzaj tasvirlari davr ruhiyatini ochiqroq tasvirlashga imkoniyat yaratadi. Adabiyotimiz tarixida ushbu mavzuda yozilgan asarlar talaygina, ammo "Meros" qissasi va "Adolat manzili" romanlari sujetning betakrorligi, qahramonlarning xilma-xilligi bilan boshqalardan farq qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yusuf. M Saylanma: she'rlar, dostonlar, xotiralar. – Toshkent: "Sharq", 2007.
2. Shermuhamedov P. Davr qahramon taqdirida. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976.
3. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2005.
4. Karimov N, Mamajonov S, Nazarov B va boshqalar. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: "O'qituvchi", 1999.
5. Normatov U. Yetuklik//Hayot bilan hamnafaslik. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1982.
6. Qodirov P. Meros. – Toshkent: "Ilm-ziyo-zakovat", 2021.
7. Qo'shjonov M. Saylanma// Bahslarda ulg'aygan ijod. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1982.